

“TBC Bank” ATB yagona aksiyadorining 18.12.2020 yildagi qarori natijalari

№	Kun tartibidagi masalalar	Ovoz berish natijalari	Qaror matni
1.	“TBC Bank” ATB Kuzatuv Kengashi Raisi va a’zolarini saylash va tayinlash”	Tarafdorlar - 221 746 927 ta ovoz, 100% Qarshi - 0 ovoz, 0% Betaraf qolganlar – 0 ovoz, 0%	1. Bank Kuzatuv Kengashining yangi tarkibi bir yil muddatga quyidagi tarkibda tasdiqlansin: a) Nikoloz Kurdiani – Bank Kuzatuv Kengashi Raisi; b) Nino Masurashvili - Bank Kuzatuv Kengashi a’zosi; c) Voytsex Sobiryaj – Bank Kuzatuv Kengashi a’zosi; d) Seit Devdariani – Bank Kuzatuv Kengashi a’zosi; e) Sharof Sharipov – Bank Kuzatuv Kengashi a’zosi. Shu bilan birga, qabul qilingan yangi talablar munosabati bilan Markaziy bank bilan kelishilgan holda 2020-yil 30-iyundagi 3252-son “Bank faoliyati uchun ruxsatnomalar berish tartibi va shartlari to’g’risida”gi nizomga muvofiq Kengash a’zolariga tayinlanadigan nomzodlar Kengash a’zolarining har biriga tegishli hujjatlar to’plami O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yuborilsin. Shuningdek, Nino Masurashvili O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ijobiy bahosini olgandan keyingina o‘z lavozimiga kirishishi mumkinligini ham inobatga olinsin.
2.	“TBC Bank” ATB Boshqaruvi Raisini saylash	Tarafdorlar - 221 746 927 ta ovoz, 100% Qarshi - 0 ovoz, 0% Betaraf qolganlar – 0 ovoz, 0%	1. Spartak Tetrashvili bir yil muddatga “TBC Bank” ATB Boshqaruvi Raisi lavozimiga tasdiqlansin. Shu bilan birga, Markaziy bank bilan kelishilgan holda 3252-sonli “Bank faoliyati uchun ruxsatnomalar berish tartibi va shartlari to’g’risida”gi nizomga muvofiq Boshqaruv a’zoliciga tayinlangan nomzodlarga nisbatan qabul qilingan yangi talablar munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tegishli hujjatlar to’plami topshirilsin. Spartak Tetrashvili O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ijobiy bahosini olgandan keyingina Bank Boshqaruvi Raisi lavozimini egallashi mumkinligi inobatga olinsin.
3.	“TBC Bank” ATBning 2020-2025 yillarga mo’ljallangan biznes-rejasini tasdiqlash	Tarafdorlar - 221 746 927 ovoz, 100% Qarshi - 0 ovoz, 0% Betaraf qolganlar – 0 ovoz, 0%	Taqdimotga ko’ra, Bank Kuzatuv Kengashining 2020 yil 11 dekabrda bayonnomasi bilan dastlabki tasdiqlangan “TBC Bank” ATBning 2020-2025 yillarga mo’ljallangan budjeti, biznes-rejasi va strategiyasi tasdiqlansin.